

# Единый портал корпоративной информации

## Существенные факты

"OLTIN YULDUZ PLUS MMT" МЧЖ

06. Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг

1.	<b>НАИМЕНОВАНИЕ ЭМИТЕНТА</b>	
	Полное:	"OLTIN YULDUZ PLUS MIKROMOLIYA TASHKILOTI" mas`uliyati cheklangan jamiyati
	Сокращенное:	"OLTIN YULDUZ PLUS MMT" МЧЖ
	Наименование биржевого тикера:	-
2.	<b>КОНТАКТНЫЕ ДАННЫЕ</b>	
	Местонахождение:	Фаргона вилояти, Қўқон шахри, Мовароуннахр кўчаси, 49а-уй
	Почтовый адрес:	Фаргона вилояти, Қўқон шахри, Мовароуннахр кўчаси, 49а-уй
	Адрес электронной почты:	<a href="mailto:doniyor.gaipov@mail.ru">doniyor.gaipov@mail.ru</a> (mailto:doniyor.gaipov@mail.ru)
	Официальный веб-сайт:	- (https://-)
3.	<b>ИНФОРМАЦИЯ О СУЩЕСТВЕННОМ ФАКТЕ</b>	
	Номер существенного факта:	6
	Наименование существенного факта:	Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг
	Вид собрания:	внеочередное

Дата проведения собрания:	17.02.2026		
Дата составления протокола собрания:	17.02.2026		
Место проведения собрания:	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar, Movarounnaxr ko'chasi, 49 "A"-uy		
Кворум собрания:	100,00		

№	Вопросы, поставленные на голосование	Итоги голосования					
		за		против		воздержались	
		%	количество	%	количество	%	количество
1	“OLTIN YULDUZ PLUS mikromoliya tashkiloti” mas'uliyati cheklangan jamiyatining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish	100,0	3	0	0	0	0
2	“OLTIN YULDUZ PLUS mikromoliya tashkiloti” mas'uliyati cheklangan jamiyatining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash	100,0	3	0	0	0	0

№	Полные формулировки решений, принятых общим собранием
---	---

1

1.1. "OLTIN YULDUZ PLUS mikromoliya tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining resurs bazasini oshirish maqsadida jamiyat korporativ obligatsiyalarning uchinchi chiqariluvini muomalaga chiqarilishiga ruxsat berilsin. 1.2. Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish miqdori, shartlari, muddatlari va obligatsiyalarning har biri bo'yicha to'lanadigan daromadlarni belgilash tartibi quyidagicha belgilansin: - chiqarilishdagi obligatsiyalarning miqdorini jamiyatning o'z kapitali miqdori doirasida belgilash uchun egasining nomi yozilgan foizli, hujjatsiz shaklda, 23 000 (yigirma uch ming) dona, nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so'mdan bo'lgan, umumiy summasi 23 000 000 000 (yigirma uch milliard) so'm deb belgilansin; - ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirish usuli - yopiq obuna usulida Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki (STIR: 200242936, joylashgan yuridik manzili: Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 85-uy), "HAMKOR SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati (STIR: 207009443, joylashgan yuridik manzili: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 7b-uy), "TRUST INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati (STIR: 307184423, joylashgan yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Miron shoh ko'chasi, 6-tor ko'chasi, 18-uy) va "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 300526870, joylashgan yuridik manzili: Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy)larga uyushmagan (tashkillashtirilmagan) birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida, fuqarolik-huquqiy bitimlarini tuzish orqali joylashtirilsin. Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalarni joylashtirish muddatida yopiq obuna usulda joylashtirish nazarda tutilgan yuridik shaxsning nomi o'zgargarsa, uning o'zgargan nomi bo'yicha, yuridik shaxs tugatilsa yoki qayta tashkil etilsa, uning huquqiy vorislariga ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar tegishliligi bo'yicha joylashtirilishi mumkin. - bitimlar xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisi - "HBCapital" MCHJ tomonidan ro'yxatga olinsin; - mazkur obligatsiyalarni joylashtirish jarayonida anderrayter sifatida "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyatini jalb etish va uning xizmatidan foydalanish ko'zda tutilsin; - mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab bir yil davomida joylashtirilsin; - obligatsiyalarni joylashtirishni boshlanish sanasi – mazkur obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun hisoblansin; - obligatsiyalarning joylashtirishning tugash sanasi – chiqarilishning so'nggi obligatsiya joylashtirilgan kun, biroq obligatsiyalarni joylashtirishni yakunlanish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab bir yildan oshmaslik belgilansin; - ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirish bahosi nominal qiymatda, ya'ni 1 000 000 (bir million) so'mdan joylashtirilsin; - ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar uchun to'lovlar qimmatli qog'ozlarning uyushmagan (tashkillashtirilmagan) birjadan tashqari savdo qoidalariga muvofiq tuziladigan bitimlar asosida naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitoblarni amalga oshirilsin. Obligatsiyalar bo'yicha pulsiz vositalar bilan to'lovlar ko'zda tutmasin; - obligatsiyalar uchun to'lovlar faqat pul mablag'lari bilan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'mda amalga oshirilsin. To'lovlar pul o'tkazish yo'li bilan, naqdsiz shaklda amalga oshirilsin; - obligatsiyalarning muomala muddatini – obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan 1080 (bir ming sakson) kun qilib belgilash. Mazkur muddat foizlarni to'lash maqsadida har bir 30 kunga teng bo'lgan 36 ta oraliq davrlarga bo'linsin; - ushbu obligatsiyalarning har biri bo'yicha to'lanadigan daromad miqdorini yillik (kupon stavkasi) 23 (yigirma uch) foiz qilib belgilansin; - obligatsiya egasiga belgilangan muddat oraliq'ida obligatsiyaning nominal qiymatidan (amaldagi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda foiz daromadidan to'lash manbaidan ushlab qolingani soliqni inobatga olgan holda) obligatsiyalarni chiqarish bo'yicha o'rnatilgan shartlarida foizli daromad olish huquqi berilsin; - obligatsiyalar bo'yicha foizli daromadlar jamiyat tomonidan tegishli oraliq davrning oxirgi sanasida tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrda ro'yxatdan o'tgan obligatsiya egasiga to'lab berilsin, bunda: • dastlabki sotib olinganda bitta obligatsiyaga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 va 12-chi oraliq davr uchun foizli daromad quyidagicha aniqlansin:  $D_n = N * C_n * (E - E_f) / 365$ , bunda:  $D_n$  – obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromadlari;  $N$  – obligatsiyaning nominal qiymati;  $E$  – 30 kunlik joylashtirish davrlarning oxirgi sanasi;  $E_f$  – hisoblangan oraliq davrdagi, obligatsiyaning sotib olingan sana;  $C_n$  – obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi (yillik

2	2.1. "OLTIN YULDUZ PLUS mikromoliya tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror 1-ilovaga muvofiq tasdiqlasin. 2.2. "OLTIN YULDUZ PLUS mikromoliya tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorning yuqori qismiga imzo bilan tasdiqlash vakolati va o'z vaqtida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun topshirish vizifasini jamiyat Ijrochi direktori D.A.G'aipovga berilsin.
---	--

Текст вносимых изменений и (или) дополнений в устав	-
---	---

Ф.И.О. руководителя исполнительного органа:	Ғаипов Дониёржон Абдуллаевич
Ф.И.О. главного бухгалтера:	Абидов Рашиджон Рустамович
Ф.И.О. уполномоченного лица, разместившего информацию на веб-сайте:	Ғаипов Дониёржон Абдуллаевич

**Данная публикация на корпоративном веб-сайте эмитента (-)**

Источник: <https://openinfo.uz/facts/6/13651>

Дата загрузки с портала: 04.04.2026

Дата подписания: 19.02.2026

**OLTIN YULDUZ PLUS**  
**MIKROMOLIYA TASHKILOTI**  
**MCHJ**  
**Direktor**



**G'AIPOV DONIYORJON**  
**ABDULLAYEVICH**